

ADABIY TANQID VA ABDULLA QODIRIY IJODI.*Sabirdinov Akbarali**filologiya fanlari doktori, professor**Mirzadavlatova Gulnozaxon**Farg'ona davlat universiteti filologiya**fakulteti 4-bosqich talabasi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida adabiy tanqidning shakllanishi va rivoji, uning badiiy ijod bilan uzviy aloqasi, Abdulla Qodiriy ijodiga nisbatan turli adabiy tanqidiy qarashlar tarixiy taraqqiyot jarayonida tahlil qilinadi. Sovet davri, jadidchilik hamda mustaqillikdan keyingi adabiyotshunoslikda shakllangan turli yondashuvlar qiyosiy o'rganiladi.

Kalit so'zlar: adabiy tanqid, munaqqid, Abdulla Qodiriy, roman, realizm, Sotti Husayn, Ozod Sharofiddinov, badiiy talqin, milliy uyg'onish, adabiy jarayon.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются становление и эволюция литературной критики в узбекской литературе с акцентом на её органическую связь с художественным творчеством. Представлен системный анализ различных критических подходов к творчеству Abdulla Qodiriy в контексте их исторического развития. В работе проводится сравнительное изучение интерпретационных моделей, сформировавшихся в период джадидизма, советской эпохи и постнезависимого времени, с выявлением изменений идеологических и эстетических парадигм.

Ключевые слова: литературная критика, критик, Abdulla Qodiriy, роман, реализм, Сотти Хусайн, Озод Шарафиддинов, художественная интерпретация, национальное пробуждение, литературный процесс.

ANNOTATION

This article explores the formation and evolution of literary criticism within Uzbek literature, emphasizing its intrinsic relationship with artistic creativity. It provides a systematic analysis of diverse critical perspectives on the works of Abdulla Qodiriy in the context of their historical development. The study offers a comparative examination of interpretative frameworks that emerged during the Jadid movement, the Soviet period, and the post-independence era, highlighting shifts in ideological and aesthetic paradigms.

Keywords: literary criticism, critic, Abdulla Qodiriy, novel, realism, Sotti Husayn, Ozod Sharofiddinov, artistic interpretation, national awakening, literary process.

Adabiyotshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lgan *adabiy tanqid* asosan harakatdagi adabiy jarayonni tekshiradi, yangi paydo bo'layotgan asarlar talqin vositasida taraqqiyot tamoyillari haqida xulosa chiqaradi, adabiy jarayonga, yangi mezonlar shaklanishiga ta'sir etadi. Adabiy tanqid zamonaviy badiiy asarlarni xalq hayoti, uning estetik ehtiyoj va talablari jihatidan o'rganadi, baholaydi, fazilat, nuqsonlarini amqlaydi, yozuvchilarning ijodiy o'sishlariga va adabiyotning ravnaqiga ko'maklashadi. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, adabiy tanqidda tarixiy-funksional yondashuv tamoyili bo'lib, u vaqti-vaqti bilan o'tmishda yaratilgan badiiy qadriyatlarga murojaat etib turadi. Har bir davr, insonlardagi badiiy-estetik ehtiyoj insoniyat yaratgan buyuk asarlarni o'qib, uqib, talqin qilib, baholab borishni taqozo etadi.

Boshlanayotgan yangi davr adabiy-badiiy talablari va estetik ehtiyojlarini ifoda etib, zamonning yangi tipdagi badiiy adabiyoti, yangi inson vakitobxonni tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan adabiy tanqid O'zbekistonda XX asr boshlarida matbuot bilan birga Lug'ildi. Uning yuzaga kelishida, awalambor mumtoz adabiyot va adabiy-tanqidiy tafakkur an'analari, qolaversa, yangi matbuot sahifalarida bosilgan maqolalar hamda an'anaviy tarzda sharq qo'lyozmalari orqali kirib kelgan jahon ilmiy estetik qarashlaridagi namunalar muhim rol o'ynadi.

Yangi o'zbek adabiy tanqidchiligining maxsus hodisa sifatida tug'ilib, shakllanib, kamolot bosqichiga ko'tarilish yo'lida kechgan qiyinchilik va ziddiyatlar mohiyatini artglash uchun tarixning adabiy madaniy sahifalarini birma-bir varaqlab, ko'zdan kechirish, erishilgan ilmiy-estetik yutuqlarni, mavjud nuqsonlarni tahlildan o'tkazish, adabiy-badiiy, ilmiy-estetik tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini haqqoniy o'rganish va yoritish zarur bo'ladi.

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyoti tarixida romanchilik maktabining asoschisi, milliy badiiy tafakkurda tub burilish yasagan ijodkorlardan biridir. Uning O'tkan kunlar va Mehrobdan chayon romanlari, ko'plab hikoyalari, publitsistik maqolalari XX asr boshidagi ma'rifiy jarayonning yetakchi manbalaridan hisoblanadi. Qodiriy ijodi yaratilgan ilk davrlaridanoq adabiy tanqidchilik doirasida muhokama qilinib kelgan. Bu munosabat zamon talabi, mafkuraviy bosimlar, adabiy maktablarning o'zgarishi bilan turli bosqichlarda turlicha bo'lgan. Qodiriy ijodining ilk tanqidiy talqinlari (1920-1930-yillar).

Sovet mafkurasi bosimi ostidagi tanqidiy qarashlar 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida adabiyotda sovetcha mafkuraviy mezonlar kuchaydi. Shu sabab: Qodiriy feodal munosabatlarni ideallashtirdi, tarixiy shaxslarni romantiklashtirdi, burjua millatchiligiga moyil kabi ayblovlarga duch keldi. Mazkur davrda adabiy tanqidchilik Qodiriy ijodiga nisbatan mutlaqo salbiy va mafkuraviy yondashgan.

30-yillarda S.Husayn, M.Buzruk singari o'zbek munaqqidlari adibning «millatchi», «mayda burjuaziya» vakili ekanini yozgan, romanlaridan sho'rocha talablarni qoniqtiradigan manzaralar topolmay ayblagan bo'lsalar, Azimzoda Abdulla Qodiriy o'z maqolasida «bo'lshaviklarga sotilg'on» hisoblaydi; adib romanlarini o'qib, unga shunday aybni yuklaydi. Darvoqe, bir o'rinda Botuni bol'sheviklarning ishonchli xizmatchisi, Mirtemirni esa «bo'lshaviklar manfaati uchun she'rlar yozadi», «bo'lshavik malaylaridan» deb aytadi.

Azimzoda quyidagicha yozaveradi: «Abdulla Qodiriy bo'lshaviklar uchun xizmat qilib turadir. Uning «Mehrobdan chayon» degan kitobi milliy ro'mon emasdir. Bu asarda burung'i xonlarning ayblari xayoliy va mubolag'ali bir suratda tasvir etilib, eski an'analar xalafar nazarida taqbih etiladir; millat va milliyat tuyg'usi alayhinda bo'lg'on bu ro'mon bo'lshaviklar manfaati uchun nashr etilmishdir..Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» kabi yana «O'tkan kunlar» degan ro'moni bor. Bu asarda bo'lshaviklarga pak maqbuldir»

E. Nabi bir o'rinda Abdulla Qodiriy romanchilik mahoratini S. Ayniyga qiyoslab, ilk o'zbek romannavisining ustunligini bayon etadi: «Ayniyning tarixiy romanlari G'arb madaniyati nuqtai nazaridan qaraganda o'z mohiyatini to'liq ifodalay olmagan bo'lsa, Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan ikki roman tarixiy roman elementlarini ko'rsatishga ancha yaqinlashdi. Shuningdek, ushbu ikki roman ma'lum bir xususiyatlar bilan G'arb romanchiligidan farqlanib, ajralib turadi».

E. Nabi e'tiborini tortgan yana bir jihat shuki, Abdulla Qodiriy xotin-qizlar obrazini realistik, his-tuyg'ulari, ichki va tashqi dunyosi bilan yorqin tasvirlagan; o'sha davrning boshqa sovet o'zbek va tojik adiblarida aynan xotin-qizlar dunyosi juda sayoz, biryoqlama, sovet tuzumini yoqlash va eski an'analarni quruq qoralash yo'sinida yozilgan. Davr talabidan kelib chiqqan holda munaqqidlar asarlar tahlilida sotsiologik metoddan foydalanganlar.

80-yillar ikkinchi yarmi 90-yillarning birinchi yarmi oralig'i qodiriyshunoslikdagi tub burilish davri bo'ldi. Adib tavalludining 95 yilligi oldidan, 95 yilligiga, 100 yilligi oldidan va 100 yilligiga bag'ishlab yozilgan maqolalar, ilmiy majmualar hamda risolalar maydonga keldi.Eng muhimi, qachonlardir Abdulla Qodiriyning dilbar romanlarini o'qib turib, undagi milliy pafosdan ruhlangan, ammo barcha his-ehtiroslari dilining tub-tubida saqlangan olim va adiblarning bag'ri-dili ochildi.Ta'qib, tahdid va tahlikadan omonlikda qalam tebratish imkoniyati paydo bo'lgan muhitda ulug' adibga daxldor quvonch va surur, g'am va tashvish, afsus ila nadomat barchasi to'kib solindi.

M. Qo'shjonov Qodiriy erksizlik qurboni kitobida adabiy tanqidchilikning ulug' adib ijodiga munosabatining ayrim qirralarini tekshirdi. Ijoddagi, fikrdagi erksizlik Qodiriy ijodini talqin etishda naqadar g'ayriilmiy yondashuvlarga olib kelganini ustida qimmatli fikrlar bildirdi. Abdulla Qodiriy ijodini o'rganganlar bilan bahslashdi. Aslida

bahsdan xoli kim bor? Hatto M. Kushjonovning o'zi bilan ham munozara qilsa bo'ladi. Deylik, Oybek xususida M. Kushjonov yozadi: Demak, 'Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li' da yozuvchi Oybek ko'proq Abdulla Qodiriy ijodining fazilatlarini ko'radi. Unga san'atkor sifatida qaraydi

Abdulla Qodiriy romanlariga bunday yangicha yondashuv, talqin va tahlillar jamiyatdagi tub o'zgarish mustaqillikdan, istiqloq davridagi ijod erkinligidan, tozarishlardan darak beradi.

Mustaqillik davri qodiriyshunosligida Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi (Universitet, 1994) majmuasi, Ilhom Raniyevning Ruhiiy go'zallik qismati (Buxoro, 1994), professor Umarali Normatovning Qodiriy bog'i (Yozuvchi, 1995), O'tkan kunlar hayrati (O'qituvchi, 1996), Qodiriy mo'jizasi (O'zbekiston, 2010), professor Sobir Mirvaliyevning Abdulla Qodiriy (Fan, 2004), Sherkon Qodiriyning 37-xonadon (Davr press, 2011) kabi kitoblarida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga yangicha yondashuv yaqqol seziladi.

U. Normatovning Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor ijodlari haqi dagi tadqiqotlari, maqolalari adabiy jarayonda o'ziga xos o'rin tutadi. Chunonchi, A. Qodiriyning «Obid ketmon» asari haqidagi «Orttirmay va kamitmay» degan maqolasi 90-yillar o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida ham, qodiriyshunoslikda ham badiiy asarga yangicha yondashuv namunasi boldi. «O'tkan kunlar» hayrati» deb nomlangan qo'Mlanma umumta'lim maktablari adabiyot o'qituvchilari va yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bolib, unda o'zbek adabiyoti dasturi va darsligidagi Abdulla Qodiriyga oid, ayniqsa, adibning shoh asari «O'tkan kunlar» romani, uning ijodiy tarixi, yangi o'zbek adabiyoti rivojidagi o'mi haqidagi ma'lumotlarancha yangilandi. Bu risolaning ahamiyati shundaki, unda A. Qodiriy ijodiga mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan baho beriladi. Asar va uning qahramonlari haqidagi yangicha talqinlar o'quvchilarni Qodiriy romanlarini qaytadan o'qishga chorladi. Olim «O'tkan kunlar» romani bilan o'zbek adabiyotining obrazlar, xarakterlar silsilasida yangi davr boshlanganligini hazrat Navoiyning ijodiy jasorati bilan qiyoslaydi. Kitobning «Qismat va jasorat, «Otaga ta'zimbolimlaridagi izlanishlar qahramonlar talqi- ning yangi bosqichga ko'larilayotganidan darak beradi. Olimning A. Qodiriy haqidagi izlanishlarini umumlashtirgan «Qodiriy mo'jizasi kitobi istiqloq davri o'zbek adabiyotshunosligi va qodiriyshunosligini boyitishda muhim rol o'ynadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy ijodi adabiy tanqidchilikning turli bosqichlari orqali sinovdan o'tgan bo'lsa-da, zamon sinovidan ham, mafkuraviy bosimlardan ham o'zligini yo'qotmagan holda milliy adabiyotning abadiy qadriyatiga aylangan. Bugungi kunda Qodiriy merosi milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va adabiy jarayonni rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rasulov A. va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Darslik. T:2012.

2. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur. T: Akademyashr, 2014.
3. Кушжонов М. Кодирий - эркислик курбони. - Тошкент: Фан, 1992. - Б.16.
4. Normatov, U. XX asr o'zbek adabiy jarayoni va Qodiriy ijodi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
5. Karimov, N. Abdulla Qodiriy merosi va o'zbek romanchiligi taraqqiyoti. – Toshkent: Akademyashr, 2011.